

## ALISHER NAVOIYNING FIRDAVSIY "SHOHNOMA"SIGA MUNOSABATI

To`rayeva Sayyora Baxtiyorovna

*Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi katta o`qituvchisi*

Zaynulloh Nabizada

*O`zbekiston respublikasi Oliy va O`rta*

*Maxsus ta`lim vazirligi huzuridagi Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi talabasi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada Alisher Navoiy Firdavsiyning "Shohnoma"sig qilgan adabiy naqdi haqida so`z yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *panj, ganj, panja, kohil, ro`z, pisandida, janr, masnaviy.*

Har bir millatning o`ziga xos tili va adabiyoti bo`ladi. Har bir xalq esa o`z tili va adabiyoti hamda o`zida bo`lgan buyuk namoyandalari bilan taniladi. Forsiy adabiyot ham o`z ma`naviy boyligi bilan ajralib turadi. Mazkur adabiyotning cho`qqilarda ko`tarib va yanada g`ani va to`laroq qilib ko`rsatuvchi namoyanda va qalamkashlaridan bir bu Firdavsiy bo`lib, u o`z xamsasi bilan jahon adabiyotida dong taratgan olim bo`lgan.

Firdavsiy jahon adabiyotida o`zining " Shohnomasi" bilan dong taratgan bo`lib, shoirlarining shohi deb e`tirof etilgan. Shuningdek , asarlaridan biri forslarning milliy qiyofasi va o`zligi , shu millat Shohnoma sher`iyatining eng yuksak cho`qqilaridandir. Bu ulug` qoyalarga Firdavsiydan o`zga shoir , ko`tarila olmasligi , chiqaolmasligi yaqqol ko`rinib turibdi. Xo`sh , nega turkiy adabiyotida Shohnoma yozilmaydi? Yoxud , turkiy adabiyotimizda Shohnomaga teng keladigan asar bormi o`zi? Adabiyotshunoslikda bunday savollar tug`ulishi – tabiiy hol. Bu masalalarga turli nuqtai nazardan yondashish mumkin. Biz esa , shu savollarga Alisher Navoiy ko`z qarashidan Javob Navoiy davrida , izlashga urinib ko`ramiz. Bunday savollar zotan ham qo`yilgan ko`rinadi. Biz uchun olim va ulug` shoir sifatida Navoiyning Firdavsiy haqidagi fikrlari juda muhimdir. Alisher Navoiy sher`iyatning barcha turlari bo`yicha qalam tebratib, har bir she`ri asarga alohida munosabatda bo`lgan va adab ilmining bilimdoni. Asarning bahosini bergan shoirlarning iste`dodi va yaratuvchilik qobiliyatini haqqoniy sifatida , baholay olgan. Ulug` mutafakkir o`zining " Majolin un nafois" tazkirasida shoir , adib va yozuvchining tab ahvolidan kelib, 459 – bobida uning she`riyati va badiiy qimmatini haqida olimona fikr yuritgan. Navoiy nazmning barcha janrida ijod qilarkan, har bir she`riy janrda cheksiz o`zgacha ma`nolar eshigini ochadi. Shoir shahkor yaratish uchun she`riyatning masnaviy turini tanladi. Navoiy nigohida masnaviyning maydoni keng taxxayulotiga mingan qalam bukunliklar bo`ylab yaxshiroq chopadi. Shuning uchun ham Navoiy xamsanavislikdek o`ta qiyin ishni ana shu masnaviy maydonida tajriba qilardi va bu sinovdan muvaffaqona o`tadi.

Menga davlat elgi bo`lib rahnamun,

Chu bu panchag`a qildi zo`r ozmun.

Dema panja oni qattiq xoradi,  
Dema xora , po'lot yakporadi.  
Ne panja erur " Xamsai ganj sanj"  
" ki dono qo'yubdur otin panj ganj".  
Qayu xamsa kim maxxani durri nob,  
Qayu panja kim panjai oftob.  
Ki so'z turi keldi sening sha'ningg'a

Bo'lib xatm tabdur afshonigg'a.Navoiy nafaqat xamsachilikda ma'no eshigini ochdi balki, ma'nolardan mangu qasr ham qurib qo'ydi. Bu ma'nolar jilosi shoirning ko'proq beshligida ko'zga tashlanadi.

Dostonchilikda Navoiy nazmning masnaviy janrini tanlar ekan, dostonning qaysi yo'nalishida qalam urishi ham adib uchun muhim edi. O'rta asrlarda katta so'z mulkida iste'dodlarni Shohnoma bitish emas, balki xamsa yozish , namoyish qilishda birinchi o'rinda turgan. Bu jaryonni Nizomiy Ganjaviy , Xisrav Dehlaviy, Jomiy va Navoiy kabi ulkan shoirlar ijodida ko'rishimiz mumkin. Bulardan keyin Navoiy bu sohada o'zini sinab ko'rgandan biroq muvaffaq bo'laolmagan Navoiy nega shahnoma yozmadi savoliga kelsak , endi bu borada quyidagicha yozadi:" Davrimizda Shohnoma bitishga zarurat bo'lsa, talab va taklif edi. Bu ishni albatta bajargan bo'lur edim deya bo'lganda javob qiladi."

Vale et deb kim menga tutdi yuz ,  
Ki men yuz uchun etmadim ikki yuz.

Bu Navoiyning shohnomaga zohiri ya'ni yuzaki munosabati edi. Biroq bu masalada Navoiyning botiniy ya'ni ichki yondashuvi ham bordir. Botiniy munosabatni Navoiy mana bu baytlar bilan boshlaydi:

Men ul menki to turk bedoridur,  
Bu til birla to nazm bunyodidur.  
Ne nazmdir ayirsam men dardnok,  
Ki har harf bo'lg'ay ana durri pok.  
Yetar tangridan ancha quvvat menga ,  
Ki bo'lmas bitarga fursat menga .

Mumtoz adabiyot tarixida masnaviy yo'lida ham Firdavsiy ham qalam tebratib Shohnoma yozganini Navoiy shunda tilga oladi:

" Bu maydonda Firdavsiy ulgard erur,  
Ki gar kelsa Ristam javobin berur.  
Raqam qildi farxunda " Shahnomaiy",  
Ki sindi javobida har nomaiy.  
Muslimdurur soziharan bu ishi ,  
Ki ma'razg'a kelmaydurur har kishi.

Demak , ko'pchilik nazaridan bir qaraganda shohnoma yozish har kimning ishi emasdek tuyuladi. Shohnoma yozishning muhimligini Alisher Navoiy Firdavsiy so'zlari bilan shunday bayon qiladi:

Dedi, o'z tili birla ulkan ganj,  
Ki siy sol bo'rdam ba shahnoma ranj.

Navoiy shohnoma bitishni Firdavsiy o'ylaganchalik og'ir ish, mashaqqat emas deb xulosa chiqaradi. Alisher Navoiy shoir Firdavsiy o'z umrini bekorda sarf qiladi. Agar shunday ish mening chekinga tushunganda mana bunday qilib uddalagan bo'lardim dedi.

Ana derki bo'lsam qachon rag'batim,  
Erur ancha haq lutfidin quvvatim .  
Ki har necha nutq o'lsa kohil saroy,  
Bitgayman o'ttiz yilin o'ttiz oy.

Agar xosa ma'niy gar iyhom erur, Ani kunda yuz baytni alvom erur Bu bor gap, Firdavsiy G'azna hukumdori bo'lmish Mahmud G'aznaviydan zaru salla olish maqsadida shohnoma yozadi.

Bpayvastam in nomai boston,  
Pisandida az daftar raston.  
Ki to ro'z pir maro bar dahad ,  
Buzurgi dinor afsar dahad .  
Na diydam jahondori baxshandaiy,  
Bar taxti kayon bar daraxshandaiy.  
Hami doshtam tokay oyad padid,  
Javoniy ki judash naxohad kalid.

Shahnoma yaratgan ulug' shoir nima uchun qiyin ahvolga tushib qolgani Navoiy diqqatini o'ziga jalb qiladi. Buning sababini Firdavsiy shunday tushuntirib ketgan:

Chunin sol bgzashtam shastupanj,  
Ba darvishiy-u zindagoniy baranj.  
Chu panj az sari sol shastam nishast,  
Man andar nishib-u saram past.  
Rux lolagun gasht bar son ko,  
Chu kofur shud rangi mushk siyo.

Alisher Navoiy Firdavsiy chekgan ranju mashaqqatdan bexabar emas edi. Navoiy shohnomadan bu baytlarni o'qib , Firdavsiyning buyukligini savol ostiga qo'yadi.

Biru bo'lsa bu ishda bu navfard, Vale ko'rmasa bahra juz ranju dard.  
Bo'lub qofu vaj maoshig'a kon,  
Murabbasi anqog'a ham oshiyon.

Firdavsiy bu tarixiy ishning mukofotini nega ko'raolmadi. Bu narsa Firdavsiyga qattiq botadi.

O'yi notavon ko'ngli yanglig' buzuq,  
Bu o'y ichra anduh , g'am yer ochuq.  
Meni bazm barcha yurak qonidin,  
Surud hazin ko'ngil afg'onidin.  
Desa kim topay eski puldin firoq,

Topilmay a'zosida yangi dog'.  
Maiyshat uchun orzu qilsa sim,  
Ani topqay ammo esarda nasim.  
Kishi jins mulkida mardum go'yo,  
Darm sinfi avzohida kimiyo.

Navoiy bunday vaziyatga tushub qolgan Firdavsiyga mana bu so'zlari bilan quyidagicha munosabatda bo'ladi:

Kishi bo'lsa andoqki o'tdi maqol,  
Bu yanglig' kishiga bu nav o'lsa hol.  
Nechuk mayl ovoralig' yetmagay ,  
Boshin olibon birtaraf ketmagay.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyoti ham boshqa adabiyotlardan ayniqsa fors adabiyotidan kam emas ekanligini buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning asarlarida tarannum etganligi tufayli ko'rishimiz mumkin. Xolbuki, xamsachilik bo'lsinmi, G'azalchilik bo'lsinmi, Nazm yoki nasr bo'lsinmi, hamma sohada mukammal va yetuk darajada olib borilganligi oshkor va namoyon bo'lib turibdi. Shu bilan birga Navoiy o'zining xamsasini Firdavsiyning "Shohnoma"sidan kam emasligini va dostonchilikda mohir qalamkashligini hamda o'zbek tilini boshqa tillar singari boy ekanligini yuqoridagi misralarda isbotlab bergan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy "Majolis un nafois" 13- jild (1997)-yil
2. Alisher Navoiy "G'aroib us sig'ar" 23- jild 1988- yil.
3. <https://anisvaturon>